

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROOSINI O'RGANISH MASALALARI xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

NAVOIY ASARLARIDA KASHF TALQINI

Sayfiddin RAFIDDINOV

*O'zbekiston FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori institutining katta ilmiy xodimi,
filologiya fanlari nomzodi*

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14803671>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kashfning mazmun-mohiyati, tasavufiy ma'nosi haqida so'z yuritiladi. Navoiy ayrim so'fiylarning kashf sohibi bo'lgani haqida xabar berish bilan birga, ba'zi baytlarda kashfning qo'llangani va o'ziga xos ma'nolar anglatishidan babs yuritadi. Kashf kabi tasavvufiy atamalarni bilmasdan turib, ulug' shoir ijodini chuqur anglab bo'lmaydi.

Kalit so'zlar: kashf, tasavvuf, qalb, shayx, murid, avliyo, ilhom, so'fiy, mukoshafa, ruh, riyozat, Ka'ba, oyat.

Аннотация: В данной статье говорится о сути и мистическом значении открытия. Наряду с сообщениями о том, что у некоторых суфииев есть кашф, Навои утверждает, что кашф используется и имеет особое значение в некоторых стихах. Не зная такого мистического термина, как Кашф, нельзя глубоко понять творчество великого поэта.

Ключевые слова: открытие, мистика, душа, шейх, мюрид, святой, вдохновение, суфий, мукосхафа, душа, поэзия, Кааба, стих.

Annotation: This article talks about the essence and mystical meaning of discovery. Along with reporting that some Sufis have kashf, Navoi argues that kashf is used and has specific meanings in some verses. Without knowing such mystical terms as Kashf, one cannot deeply understand the work of the great poet.

Key words: discovery, mysticism, soul, sheikh, murid, saint, inspiration, Sufi, mukoshafa, soul, poetry, Kaaba, verse.

Kashf arabcha so'z bo'lib , ochish, topish kabi ma'nolarni bildiradi. kashf etmak – ochmoq, topmoq; kashfi roz – sir ochish. Tasavvufda his va aql yo'li bilan idrok etish mumkin bo'lмаган haqiqatlarni qalb ko'zi ila ko'rish; parda ortidagi g'aybiy xususiyatlar va haqiqiy narsalarni ko'rib, ularni his qilib, ular siridan voqif bo'lmoqlik; Ilohiy ilhom; to'g'ridan-to'g'ri, vositachisiz Allohdan olingan bilim. Bu bilim yo ilohiy xitobni eshitish yoki g'ayb olamini ko'rish bilan qo'lga kiritiladi; mukoshafa, badan va his pardasini ko'tarilishi va ruh olamining tomosha qilinishi. Valilar kashf sohiblaridir. Kashf haqida gapirganda din ulamolarimiz bir narsani alohida ta'kidlaydilar kashf - bu Allohning xos bandalariga xos in'omidi. Shu bois to Yaratganning fazli bo'lmasa, inson o'z xohishicha, uni qo'lga kiritolmaydi.

So'fiyona manbalarda – kashfi nazariy, kashfi nuriy, kashfi ilohiy, kashfi ruhoniy, kashfi ma'naviy, kashfi mujarrad, kashfi muxayyal, kashfi xavotir, kashfi zamoyir, kashfi ahvoli qubur va kashfi ahvoli qulub kabi kashflar mavjud [1. 727]. Masalan, kashfi ahvoli qubur – bir avliyoning dafn etilgan marhumning qabrdagi ahvoldidan xabardor bo'lishi; kashfi ahvoli qulub – valilarning qarshisidagi yoki

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

uzoqdagi odamning qalbidan o‘tayotgan fikrlarini bilib turishi; *kashfi* mujarrad – kashf yo‘li bilan ko‘rilgan narsaning aynan ro‘y berishi, xayol va turli andishalarning bunga ta’siri yo‘qligidir.

Ayrim so‘fiylarga ko‘ra, bu moddiy olamning ta’siridan qalbni zang va kir bosib qoladi va natijada unda bir hijob (to‘sinq, parda) paydo bo‘ladi. Riyozat va tasfiya (poklash) bilan qalbdan bu parda qo‘tarilgach, g‘ayb olami ochiq - oydin ko‘rinadi. Bu pardaning ochilishiga, ya’ni qalb ko‘zining ochilishiga *kashf* deyiladi.

Haq taologa Haq taolo bo‘lgani uchun qulluq qilgan, unga uzluksiz intilgan orif va komil zotlarni ahli shuhud: ahli mushohada, ahli kashflar deb tilga olamiz. Ularning ta’kidlashlaricha, umrini boshidan to oxirigacha donolar, avliyolar suhbatida sarf etgan, doim ular tomonga yuzlangan, ularga muhabbatli bo‘lgan insonda kashf hosil bo‘ladi va kashf maqomiga erishib, ashylarning haqiqatini anglab yetishga qodir bo‘ladi.

Zavq ahli istilohida esa, kashf deb, Alloh tomonidan keladigan birdan yorishib, keyin o‘chib qoladigan nurga aytildiki, bu kashf holatining boshlanishidir. Botiniy ma’nolar aynan kashf va zavq yo‘li bilan aniqlanadi. Shuning uchun ham ba’zan, botin ahli, kashf ahli, karomat ahli degan so‘zlar bir-birining o‘rnida qo‘llanaveradi.

Ammo haqiqiy valiylar, kashf sohiblari o‘z kashf-u karomotlarini xalqdan yashirganlar, ilohiy sirni hammaga ochmaganlar. Chunki sirni ochish valining darajasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Ammo ba’zi zaruriy holatlarda oshkor qilingan kashf bundan mustasno.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” tazkirasida mashhur avliyo Boyazidi Bistomiyning bu haqdagi so‘zlarini keltiradi:” “Ko‘pincha haqiqat (kashf-u asror) qalbimda qirq kunlab uloqib yuradi. Ularni faqat ikki guvoh: oyat va hadis asosidagina qalbimdan joy olishiga ruxsat beraman”. Abduxoliq G‘ijduvoniy ham o‘z karomotlarini yashirgan. “... Xoja Yusufdin so‘ngra alar (Abduxoliq G‘ijduvoniy) riyozatqa mashg‘ul bo‘ldilar va ahvollarin maxfiy tutar erdilar va alarning valoyati ul yerga yettiki, har vaqt namozda Ka’bag‘a borurlar erdi”.

Zamonamizning taniqli marhum olimlaridan Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (1952-2015) bu borada shunday fikrlarni bildiradi: “Ahli tasavvuf musulmonlardan biriga maloikalarning ko‘rinishi yoki ularning ovozi eshitilishini, ko‘pchilikka eshitilmaydigan ba’zi narsalarning eshitilishini, ko‘pchilikka bilinmaydigan narsalarning bilinishini kashf deb ataydilar. Bunga Qur’oni Karimda ham, Sunnati mutahharada ham misollar bor”. Olim kashf masalasida chuqr ketmaslikni, kashf sohiblarini ortiqcha ko‘tar-ko‘tar qilmaslikni aytib, shunday xulosaga keladi: “kashf – bo‘lishi mumkin narsa. U Alloh taolo tomonidan bandaga berilgan fazl yoki sinov va imtihon bo‘ladi. kashf ila aqiyda sobit bo‘lmaydi. kashf

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bilan yangi shar’iy hukm ham sobit bo‘lmaydi. kashf bilan ibodat ham sobit bo‘lmaydi. kashf Qur’oni Karim va Sunnati mutohhara ta’limotlariga to‘g‘ri kelsa, uni tasdiqlash mumkin”.

Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat” da keltirishicha, basralik Shayx Xalaf bin Ali qaddasallohu taolo shunday degan ekan “...bir kun Yahyo Mu’oz suhbatida erdim. Bir kimsaga vajd voqe’ bo‘ldi. Birov Shayxdin so‘rdikim, bu kishiga ne voqe’ bo‘ldi? Shayx dedikim, Tengri so‘zin eshitti, vahdoniyat ko‘nglig‘a kashf bo‘ldi va insoniyat sifati mahv bo‘ldi”[2.122]. Ba’zan nazm ahli bo‘lgan avliyolar o‘zlariga kashf bo‘lgan narsalarni yozib qo‘yanlar. Navoiyning naqliga ko‘ra, Shayx Faxruddin Iroqiy Shayx Zakariyo Mo‘ltoniyning topshirig‘i bilan Bobo Kamol Jandiyning xizmatiga borgan “...va har fath-u kashfyeki anga yuzlanur ermish, ani nazm va yo nasr libosida ado qilur va Bobo nazarig‘a yetkurur ermish”. Ba’zan murshidning bir nazari yo biror marhamati bilan muridlarda kashf paydo bo‘lgan. Bunga ham Navoiy tazkirasidan bir misol keltiramiz.

Shayx Abu Amr Sarifiniy Bag‘dodga Shayx Abdulqodir Geloniy hazratlarining xizmatiga borib, murid bo‘lganidan keyin u kishi shayx Abu Amr Sarifiniyga qarab, keljakda Tangri taolo unga Abdulg‘ani bin No‘qta degan bir murid ato qilishi va uning “martabasi ko‘p avliyouollohdin biyikrak” bo‘lib, Tangri taolo u bilan “maloyikaga mufoxarat” qilishi haqida bashorat beradi. So‘ngra Abdulqodir Geloniy hazratlari uning boshiga bir bo‘rk kiydiradi. Shunda Abu Amr Sarifiniyning holati o‘zgaradi va aytadiki:”...aning (bo‘rkning) xushlug‘i vasovug‘lug‘i dimog‘img‘a yetti va dimog‘din ko‘ngulga. Malakut manga kashf bo‘ldi. Eshittimki, olam va har ne andadur, Haq subhonahu va taolo tasbehin muxtalifa til bila aytadurlar, anvo‘i taqdis bila. Yaqin erdiki, aqlim zojil bo‘lg‘ay. Shayxning ilgida bir pora momuq erdi, manga urdi, aqlim o‘z holig‘a keldi. Navoiy tazkirasidagi boshqa bir misolga murojaat etamiz. Shayx Aburrabi’ Kafif Molaqiy rahmatullohi alayh aytadilarki, kim yetmish ming marta “lo iloha illalloh”ni o‘zining yo boshqa bir kishining najot topishi uchun o‘qusa, uning albatta ta’siri bo‘lishi haqida hadis vorid bo‘lgandir. Men shu zikrni aytgan va “lekin ne o‘zumg‘a va ne kishiga muayyan qilmagan” (ya’ni savobini bag‘ishlamagan) erdim. Bir jamoat bilan bir kishining taom dasturxoniga o‘tirib qoldim. Ularning orasida sohibi kashf bo‘lgan bir tifle (yoshroq bola) bor edi. “...ilig taomg‘akim eltti yig‘lamoqqa tushdi. Sababin so‘rdilar, dediki, do‘zax manga mushohiddur, anda onamni ko‘radurmenki, azob qiladurlar”. Shayx Aburrabi’ botinida (ichida) aytibdiki, “Xudovando, sen voqifsenki, yetmish ming qatla “Lo iloha illalloh” zikrin aytibmen, ani bu tiflning anosi do‘zax o‘tidin xalos bo‘lurg‘a muayyan qildim (bag‘ishladim)”. Shayx bu niyatni ko‘nglidan o‘tkazish bilan bola kula boshlaydi va xursandchilik qiladi. Undan atrofdagilar kulishining sababini so‘rashganda, onasining

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

“do‘zax o‘tidin xalos” bo‘lganini aytadi va “taom yemakka mashg‘ul” bo‘ladi. Shundan keyin Shayx Aburribi: “Manga bu hadis sihhati (haqiqiyligi) ul tifl kashfidin va ul go‘dak kashfi sihhati nabaviy (Payg‘ambar) hadisidin ma’lum bo‘ldi”, deydi [3. 412].

Navoiy tazkirada quyidagi naqlni keltirgan: Imom Yofi’iy eshitgan bir rivoyatini aytib beradi. Salotin (podsholar)dan biri darveshlarni imtihon (sinash) uchun halol va harom go‘shtlardan pishiradi va ziyofatga chaqirgan sohibi kashf darveshlardin birini oldiga eltib qo‘yadi. “Ul darvesh taom tortar vaqtida dediki, bu kun biz xodimlik qilurbiz. Barcha halol etlarni darveshlarig‘a ulashti va bori harom etlarni ayirdiki, podshohning sipohilarig‘a munosibdur. Va bu oyatni o‘qidiki, “...pokiza pok uchun, nopol nopol uchundir”. (“Nur” surasi, 26-oyat). Yuqoridagi misolda kashfning o‘ziga xos jihatni ko‘zga tashlanadi. So‘fiy mualliflar kashfni yashinining chaqnashiga o‘xshatadilar, kashf so‘fiyning Illohiy sirlar olamiga kirishiga imkon beradi... Imom G‘azzoliyning fikriga ko‘ra, kashf - Xudoning o‘zi tanlagan qullarining qalbiga qo‘yadigan nurga o‘xshaydi [4.397].

Navoiy baytlaridan birida soqiy (murshid)ga xitob qilib, bu korgoh(olam)da juda ko‘p narsalar mubham (noaniq) ekanligi, shuning uchun dunyo voqealarini ko‘rsatib turadigan sehrli va afsonaviy “jomi jahonbin” tutishini va ko‘p narsalar kashf bo‘lishini xohlaydi: ”Jomi jahonbin”ni o‘z ma’nosida ham majozan ma’rifat to‘la qalb mazmunida ham tushunish mumkin.

*Soqiyo, jomi jahonbin tutki, andin kashf etay,
Kim ko‘p ish bu korgah vaz’ida mubhamdur manga?!*

Fano darsidan manfaat topish, asrorlarini kashf qilish uchun inson pok va xolis bo‘lishi kerak. Jaloliddin Muhammad ibn Abdurahmon Qazviniy (vaf. 739/1339 y.)ning balog‘atga oid “Talxis” kitobini o‘qishning foydasi yo‘q. (Mazkur kitob Abu Ya’qub Yusuf Sakkociyning “Miftoh al-ulum” asarining uchinchi qismiga yozilgan sharhdir). Quyidagi baytda zohiriylilbotin ilmini egallab bo‘lmastligiga ishora qilingan.

*Qil fano darsi aro o‘zni mulaxxaski, emas
Sud kashfida bu ma’nining o‘qumoq “talxis”* [5].

Boshqa bir baytda ulug‘ shoir yor (Alloh) hajrida kimning ranji, azobi bo‘lsa, undan yiroq bo‘lgani uchun tunu kun mast bo‘lishi, ya’ni yor ishqini bilan o‘rtanishi, yonishi lozimligini tavsiya qiladi. Shoirning lirik qahramoni bu hodisani kashf qilgani, haqiqatini anglagani uchun Yordan “oyilmagani”, uning ishqida yonib, o‘ziga kelmagani, tuzalmagani va hushyor bo‘lmaganini e’tirof etadi.

*Hajridin bor ersa ranjing, tunu kun bo‘l mastkim,
To manga bu nukta kashfo‘ldi, yana oyilmadim* [6].

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSONI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Navoiy ba’zi baytida kashf paydo bo‘lishining sharti haqida ham ishora qilgan. Quyidagi baytda aytishicha, agar bir kishi alloma Zamaxshariyning “Kashshof” tafsirining ramzlaridan, pinhon sirlaridan voqif bo‘lsa ham to “o‘zlik harfi”dan kechmaguncha, ya’ni o‘zligidan, “men”ligadan kechmaguncha, kashfga erisholmaydi.

*Ulki qilgay o‘zi “Kashshof” rumuzin makshuf,
Kashfi yo‘q aylamayin o‘zluki harfin mahzuf.*

Keyingi baytda esa kashfning yuzaga keltiruvchi ilohiy fayzdan bahs yuritiladi. Ya’ni agar zohid kishi umrini riyokorlik bilan o‘tkazsa, o‘zini ko‘z-ko‘z qilish bilan ibodat qilsa, bunday kishiga “fayz iksiri”dan bahra yetmaydi. Umrini behudaga sovuradi, savobdan bebahra qoladi.

*Bahra yetkurmadi zuhd ahlig ‘a fayz iksiri,
Naqdi umrin chu riyo kasbida qildi masruf [7].*

NAVOIYning “Nasoyim ul-muhabbat” asarini o‘qiganimizda, Nizomiy Ganjaviy, Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Sa’diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Faxruddin Ibrohim Iroqiy, Amir Husayniy, Mahmud Chabushtariy, Avhaduddin Kirmoniy va boshqalarning betakror shoir hamda sohibi KASHF bo‘lganliklari ma’lum bo‘ladi. NAVOIYko‘p o‘rinlarda uladagi iymon, islom, poklik, go‘zal odob va xolislikni namuna qilib ko‘rsatadiki, bizningcha, ular aynan shu xislatlari bilan ham KASHF sohibi bo‘lganlar. Ulug‘ shoirimiz ba’zilarining KASHFini ochiq e’tirof etadi. Jumladan ustozi Jomiy haqida yozad

*Ulki bukun qutbi tariqatdur ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul [8. 775]...*

Ko‘rib o‘tkanimizdek, Navoiy asarlarida kelgan avliyolar va shoirlar KASHFi haqidagi ma’lumotlarni o‘qib-o‘rganishimiz, ularning hayoti va dunyoqarashini chuqurroq bilishimizga asos bo‘ladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

(Использованная литература/ References):

1. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик 3-жилд. Тошкент, 2011. 727-б.
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик, 10-жилд. Тошкент, 2011. 122-б.
3. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик, 10-жилд. Тошкент, 2011. 4 12-б
4. Александр Книш. Мусулмон тасаввуфи. “Фан зиёси” нашриёти. 2024. 397-б.
5. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик 4-жилд. Тошкент, 1989, 272-ғазал.
6. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик 6-жилд. Тошкент, 1990, 411-ғазал.
7. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик 6-жилд. Тошкент, 1990, 411-ғазал, 303 – ғазал.
8. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 10-жилдлик, 5-жилд. Тошкент, 2011. 775-б.